K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
<b>Umarov Xasan Sunnatullaevich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII .....	1210
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	1221
<b>Jalolov Abbasxon Ravshaxon o'g'li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI .....	1233
<b>Sabirov Mirza Qilichbayevich</b>	
Zararli dasturiiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
<b>Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich</b>	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	1244
<b>No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
<b>Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li</b>	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
<b>Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li</b>	



# ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH

**Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li**

Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [dilshodbektojimurodov@gmail.com](mailto:dilshodbektojimurodov@gmail.com)

Tel.: +998 95 883 76 56

**Annotatsiya.** Uch fazali asinxron motorlarning nosimmetrik ish rejimlarida faoliyat yuritishi ularning texnik holati, energiya samaradorligi va ekspluatatsion ishonchligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Elektr ta'minoti tizimlarida fazalararo kuchlanish nosimmetriyasi hamda yuklamalarning notekis taqsimlanishi kuzatiladigan sharoitlarda motorlarning barqaror va samarali ishlashini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqotning maqsadi nosimmetrik ish rejimlarida asinxron motorlarni nazorat qilish va boshqarish tizimlari eksperimentlarini amalga oshirish uchun zamonaviy eksperimental metodikani ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida uch fazali asinxron motor asosida laboratoriya eksperimental stendi shakllantirilib, faza kuchlanishlari, toklar, aylanish tezligi, harorat hamda energiya ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish yondashuvi ishlab chiqildi. Nosimmetriya darajasini baholashda simmetrik tashkil etuvchilar usuli va kuchlanish nosimmetriyasi koeffitsiyenti asosida kompleks tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, aniqlangan nosimmetriya darajasiga mos ravishda ogohlantirish hamda himoya boshqaruv qarorlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi algoritmik yondashuv taklif etildi.

Ishlab chiqilgan eksperimental metodika nosimmetrik rejimlarning asinxron motorlarning samaradorligi, qizish jarayonlari va energiya ko'rsatkichlariga ta'sirini aniq baholash imkonini beradi. Natijalar sanoat elektr yuritmalarida monitoring, diagnostika va himoya tizimlarini yanada takomillashtirish, ularning ishonchligi va energiya samaradorligini oshirish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** asinxron motor, nosimmetrik ish rejimi, kuchlanish nosimmetriyasi, eksperimental metodika, monitoring, nazorat tizimi, boshqaruv algoritmi, simmetrik tashkil etuvchilar, energiya samaradorligi, elektr yuritma.

**Аннотация.** Работа трехфазных асинхронных двигателей в несимметричных режимах является одним из важных факторов, оказывающих существенное влияние на их техническое состояние, энергоэффективность и эксплуатационную надежность. В условиях наличия межфазной несимметрии напряжений и неравномерного распределения нагрузок в системах электроснабжения обеспечение устойчивой и эффективной работы двигателей остается актуальной научно-практической задачей.

Целью данного исследования является разработка экспериментальной методики для проведения экспериментов по контролю и управлению асинхронными двигателями в несимметричных режимах работы. В рамках исследования был сформирован лабораторный экспериментальный стенд на базе трехфазного асинхронного двигателя, а также разработан подход к мониторингу фазных напряжений, токов, скорости вращения, температуры и энергетических показателей в режиме реального времени.

Для оценки степени несимметрии был проведен комплексный анализ на основе метода симметричных составляющих и коэффициента несимметрии напряжений. Кроме того, предложен алгоритмический подход к формированию предупреждающих и защитных управляющих решений в зависимости от выявленного уровня несимметрии.

Разработанная экспериментальная методика позволяет количественно оценивать влияние несимметричных режимов на эффективность работы асинхронного двигателя, процессы нагрева и энергетические показатели. Полученные результаты могут служить практической основой для совершенствования систем мониторинга, диагностики и защиты промышленных электроприводов, а также повышения их надежности и энергоэффективности.

**Ключевые слова:** асинхронный двигатель, несимметричный режим работы, несимметрия напряжений, экспериментальная методика, мониторинг, система контроля, алгоритм управления, симметричные составляющие, энергоэффективность, электропривод.

**Abstract.** The operation of three-phase induction motors under unbalanced conditions is one of the significant factors affecting their technical condition, energy efficiency, and operational reliability. Ensuring stable and efficient motor performance under conditions of voltage unbalance and uneven load distribution in power supply systems remains an important scientific and practical challenge.

The purpose of this study is to develop an experimental methodology for conducting control and monitoring experiments on induction motors operating under unbalanced conditions. Within the scope of the research, a laboratory experimental test bench based on a three-phase induction motor was established, and a real-time monitoring approach was developed for measuring phase voltages, currents, rotational speed, temperature, and energy performance indicators.

To evaluate the degree of unbalance, a comprehensive analysis was carried out using the symmetrical components method and the voltage unbalance factor. In addition, an algorithmic approach was proposed for generating warning and protective control decisions according to the identified level of unbalance.

The developed experimental methodology makes it possible to quantitatively assess the impact of unbalanced operating conditions on induction motor efficiency, thermal behavior, and energy performance. The obtained results can serve as a practical basis for improving monitoring, diagnostic, and protection systems in industrial electric drives, as well as enhancing their reliability and energy efficiency.

**Keywords:** induction motor, unbalanced operating condition, voltage unbalance, experimental methodology, monitoring, control system, control algorithm, symmetrical components, energy efficiency, electric drive.

## KIRISH

Elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish va sanoat elektr yuritmalarining ekspluatatsion ishonchligini ta'minlash zamonaviy energetika hamda elektrotexnika sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalari, nasos stansiyalari, ventilyatsiya tizimlari va texnologik ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasi iste'molining asosiy qismi elektr motorlari hissasiga to'g'ri keladi. Shu sababli elektr motorlarining energiya samaradorligini oshirish, texnik holatini monitoring qilish hamda ularning ishlash ko'rsatkichlarini optimallashtirish masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Uch fazali asinxron motorlar oddiy konstruksiya, yuqori ishonchlik va ekspluatatsion qulayliklari sababli eng keng qo'llaniladigan elektr yuritmalardan biri hisoblanadi. Elektr ta'minoti tizimlarida yuzaga keladigan fazalararo kuchlanish nosimmetriyasi, yuklamalarning notekis taqsimlanishi, elektr uzatish liniyalari parametrlarining farqlanishi hamda avariya rejimlar sharoitida motorlarning ish jarayonlarini chuqur o'rganish va samarali boshqarish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Nosimmetrik kuchlanish sharoitida asinxron motorlarda manfiy ketma-ketlik komponentalari hosil bo'lib, rotor aylanishiga qarama-qarshi yo'nalgan magnit maydon yuzaga keladi. Ushbu jarayonlarni tahlil qilish elektromagnit momentning dinamik xususiyatlarini, energiya almashinuvi jarayonlarini hamda issiqlik rejimlarini yanada mukammal baholash imkonini beradi. Natijada motorlarning energiya samaradorligini oshirish, texnik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va ularning uzoq muddatli ishonchli ishlashini ta'minlash bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro standartlar va texnik tavsiyalarda kuchlanish nosimmetriyasining elektr motorlar ishlashiga ta'siri qayd etilgan bo'lib, nosimmetrik rejimlarni nazorat qilish va monitoring qilishning muhimligi alohida ta'kidlangan.

So'nggi yillarda nosimmetrik kuchlanishning asinxron motorlar ishlashiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, ayrim ishlarda kuchlanish nosimmetriyasi motor samaradorligi va energetik ko'rsatkichlariga ta'siri baholangan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda qizish jarayonlari, momentning dinamik xususiyatlari hamda yuklama ostidagi ekspluatatsion ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, kuchlanish nosimmetriyasi va garmonik buzilishlarning birgalikdagi ta'sirini o'rganish orqali motorlarning ish samaradorligini oshirish hamda energiya yo'qotishlarini kamaytirish imkoniyatlari aniqlangan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalari nosimmetrik ish sharoitida asinxron motor parametrlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, nosimmetriya darajasini baholash hamda himoya va boshqaruv qarorlarini shakllantirish bo'yicha yanada mukammal eksperimental metodikalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar asinxron motorlarning nosimmetrik ish rejimlarida nazorat va boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Ayniqsa, eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish jarayonida monitoring parametrlarini tanlash, nosimmetriya ko'rsatkichlarini aniqlash hamda aniqlangan holatlarga mos boshqaruv qarorlarini shakllantirish mexanizmlarini yagona tizimga integratsiyalash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur yondashuv sanoat elektr yuritmalarida monitoring, diagnostika va himoya tizimlarining samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda elektr qurilmalarining ekspluatatsion ishonchligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asinxron motorlarning nosimmetrik kuchlanish sharoitidagi ishlash xususiyatlarini o'rganish uzoq yillardan buyon elektrotexnika va energetika sohasidagi ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar kuchlanish nosimmetriyasining motor samaradorligi, issiqlik rejimlari, elektromagnit moment, energiya ko'rsatkichlari hamda ekspluatatsion ishonchlilikka ta'sirini chuqur tahlil qilish va ularni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Nosimmetrik kuchlanishning asinxron motor ishlashiga ta'siri bo'yicha muhim ishlardan biri Lee tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, tadqiqotda bir xil nosimmetriya koeffitsientiga ega bo'lgan turli kuchlanish holatlarining motor samaradorligi, quvvat koeffitsienti va harorat rejimiga ta'siri eksperimental ravishda o'rganilgan [1]. Tadqiqot natijalari kuchlanish nosimmetriyasining motorlarning energetik va issiqlik ko'rsatkichlarini baholashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan hamda motor holatini yanada aniqroq tahlil qilish uchun qo'shimcha diagnostik parametrlarni qo'llash imkoniyatlarini asoslab bergan [1]. Keyingi tadqiqotlarda ushbu ilmiy natijalar rivojlantirilib, kuchlanish nosimmetriyasi natijasida hosil bo'ladigan manfiy ketma-ketlik komponentalarining motor ichidagi elektromagnit jarayonlarga ta'siri batafsil yoritilgan [2].

Wang tomonidan olib borilgan tadqiqotda uch fazali kuchlanish nosimmetriyasining asinxron motor ishlashiga ta'siri murakkab kuchlanish nosimmetriyasi koeffitsienti (Complex Voltage Unbalance Factor – CVUF) yordamida tahlil qilingan [3]. Tadqiqot natijalari nosimmetriya burchagining motor parametrlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlab, kuchlanish nosimmetriyasini baholashda amplituda va faza parametrlarini kompleks ravishda hisobga olish yanada yuqori aniqlikdagi natijalarni ta'minlashini ko'rsatgan [3].

Pillay va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda nosimmetrik kuchlanish hamda kuchlanish darajasining o'zgarishi sharoitida asinxron motorlarning ish rejimlarini optimallashtirish masalalari tahlil qilingan [4]. Mualliflar motorlarning issiqlik holatini samarali nazorat qilish va mos himoya strategiyalarini qo'llash orqali ularning ishonchli hamda barqaror ishlashini ta'minlash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [4].

Faiz, Ebrahimpour va Pillay tomonidan uch fazali qisqa tutashgan rotorli asinxron motorlarning nosimmetrik kuchlanish ostidagi barqaror ish rejimi o'rganilgan [5]. Tadqiqot natijalari nosimmetriya darajasi o'zgariganda toklarning taqsimlanishi va energetik jarayonlarning xususiyatlari ham o'zgarishini ko'rsatgan hamda motorlarning ekspluatatsion parametrlarini optimallashtirish va samarali boshqarish imkoniyatlarini yoritib bergan [5].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, nosimmetrik ish rejimlarini chuqur o'rganish asinxron motorlarning energiya samaradorligini oshirish, monitoring va diagnostika tizimlarini takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish uchun keng ilmiy va amaliy imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, real vaqt rejimida monitoring, nosimmetriya darajasini baholash va boshqaruv qarorlarini shakllantirishni yagona eksperimental metodika asosida integratsiyalash istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Boshqa tadqiqotlarda kuchlanish nosimmetriyasi bilan birga garmonik buzilishlarning asinxron motorlarga ta'siri ko'rib chiqilgan bo'lib, ushbu omillarning birgalikdagi ta'siri motorlarda yuz beradigan elektromagnit, energetik va issiqlik jarayonlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini bergan [6]. Tadqiqot natijalari momentning dinamik xususiyatlari, energiya samaradorligi hamda issiqlik rejimlarini kompleks baholash uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhimligini ko'rsatgan [6].

Shu bilan birga, nosimmetrik kuchlanish ta'sirida motorlarni himoyalash bo'yicha dastlabki ilmiy yondashuvlar Cummings va hammualliflari tomonidan taklif etilgan bo'lib, unda himoya algoritmlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan [7]. Mazkur tadqiqotlar keyinchalik monitoring, diagnostika va himoya tizimlarini yanada rivojlantirish uchun muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilgan [7].

Xalqaro standartlarda ham nosimmetrik kuchlanishning asinxron motorlar ishlashiga ta'siri alohida e'tibor qaratilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, IEC 60034-26 standartida nosimmetrik kuchlanishning induksion motorlarning harorat rejimi va ekspluatatsion ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olish tavsiya etilgan [8]. NEMA standartlarida esa ruxsat etilgan kuchlanish nosimmetriyasi chegaralari hamda motorlarni samarali yuklash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan [9]. Ushbu me'yoriy hujjatlar elektr yuritmalarining energiya samaradorligi, ishonchliligi va uzoq muddatli barqaror ishlashini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim asoslardan biri hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar nosimmetrik rejimlarning asinxron motorlar ishlashiga ta'sirini baholash bo'yicha salmoqli ilmiy natijalar shakllanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar va monitoring vositalarining rivojlanishi nosimmetrik ish sharoitlarida asinxron motor parametrlarini real vaqt rejimida kuzatish, nosimmetriya darajasini aniqlash hamda ushbu ma'lumotlar asosida nazorat va himoya boshqaruv qarorlarini shakllantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni rivojlantirish eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish, monitoring parametrlarini asosli tanlash va boshqaruv algoritmlarini yagona tizimga integratsiyalash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Natijada asinxron motorlarning energiya samaradorligini oshirish, ekspluatatsion ishonchliligini

mustahkamlash hamda monitoring va diagnostika tizimlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nosimmetrik ish rejimlarida asinxron motorlarni nazorat qilish va boshqarish tizimlari eksperimentlarini amalga oshirish uchun kompleks eksperimental metodika ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodika nosimmetrik kuchlanish sharoitida asinxron motorning energetik va ekspluatatsion parametrlarini real vaqt rejimida yuqori aniqlikda kuzatish, nosimmetriya darajasini baholash hamda monitoring natijalari asosida samarali boshqaruv qarorlarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti sifatida uch fazali qisqa tutashgan rotorli asinxron motor tanlandi. Eksperimental tadqiqotlar zamonaviy laboratoriya stendi asosida tashkil etildi. Stend tarkibiga asinxron motor, boshqariladigan uch fazali elektr ta'minoti manbai, yuklama moduli, tok va kuchlanish datchiklari, harorat sensori, aylanish tezligini o'lchash qurilmasi hamda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash moduli kiritildi. Ushbu texnik vositalar tajriba natijalarining ishonchliligi va aniqligini ta'minlashga xizmat qildi.

Eksperimental tadqiqotlar davomida motorning quyidagi asosiy parametrlari uzluksiz monitoring qilindi: faza kuchlanishlari

( $U_A, U_B, U_C$ ), faza toklari ( $I_A, I_B, I_C$ ), aktiv quvvat  $P$ , reaktiv quvvat  $Q$ , quvvat koeffitsiyenti ( $\cos\phi$ ), rotor aylanish tezligi  $n$ , stator harorati  $T$  hamda energiya iste'moli. Mazkur parametrlarni kompleks kuzatish motorning ish holatini har tomonlama baholash imkonini berdi. Nosimmetriya darajasini aniqlash uchun simmetrik tashkil etuvchilar usuli qo'llanildi. Uch fazali kuchlanish tizimining musbat va manfiy ketma-ketlik komponentalari hisoblanib, kuchlanish nosimmetriyasi koeffitsiyenti quyidagi ifoda yordamida aniqlandi:

$$VUF = \frac{U_{negative}}{U_{positive}} \times 100\%$$

bu yerda  $U_{negative}$  - manfiy ketma-ketlik kuchlanishi,  $U_{positive}$  - musbat ketma-ketlik kuchlanishi.

Shuningdek, tok nosimmetriyasi koeffitsiyenti ham aniqlanib, uning motorning yuklama ostidagi ish holati bilan o'zaro bog'liqligi baholandi.

Eksperimental metodikada nosimmetrik rejimlar uch bosqichda shakllantirildi:

1. Normal rejim — fazalararo kuchlanishlar nominal qiymatlarga yaqin holat;
2. O'rtacha nosimmetrik rejim — kichik kuchlanish og'ishlari kuzatiladigan holat;
3. Kritik nosimmetrik rejim — ruxsat etilgan chegaraga yaqin yoki undan yuqori nosimmetriya darajasi.

Har bir rejim uchun motorning elektr va issiqlik parametrlari qayd etilib, ularning vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasi batafsil tahlil qilindi. Bu esa nosimmetriyaning motor ishlash ko'rsatkichlariga ta'sirini yanada aniqroq baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri sifatida monitoring natijalari asosida xavf darajasini aniqlash va boshqaruv qarorlarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuvda nosimmetriya darajasi hamda motor haroratining o'zgarishi integrallashgan holda baholanib, uch darajali qaror qabul qilish mexanizmi qo'llanildi:

- 1-daraja — normal ish rejimi;
- 2-daraja — ogohlantirish rejimi;
- 3-daraja — himoya yoki yuklamani cheklash rejimi.

Mazkur algoritm motorning ortiqcha qizishi va ekspluatatsion shikastlanishlar ehtimolini oldindan aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan samarali boshqaruv choralarini qo'llash imkonini beradi.

Taklif etilgan eksperimental metodikaning ilmiy yangiligi nosimmetrik ish rejimlarida asinxron motor parametrlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, nosimmetriya ko'rsatkichlarini kompleks baholash hamda himoya va boshqaruv qarorlarini shakllantirish jarayonlarini yagona eksperimental tizim doirasida integratsiyalashgan holda amalga oshirish bilan tavsiflanadi. Ushbu yondashuv eksperimentlarning takrorlanuvchanligini oshirish, natijalarning ishonchliligini kuchaytirish hamda nosimmetrik rejimlarni baholash aniqligini yanada yaxshilash imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari 5 kW quvvatli, 380 V kuchlanishli, 50–60 Hz chastotali, nominal toki 10 A va nominal aylanish tezligi 3000 ayl/min bo'lgan uch fazali asinxron motor parametrlariga asoslangan holda MATLAB/Simulink muhitida hamda nazariy hisoblashlar asosida baholandi. Real laboratoriya o'lchovlari hali amalga



oshirilmaganligi sababli, olingan natijalar kelgusida eksperimental stendni yaratish va amaliy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiluvchi hisobiy-modellashtirish natijalari sifatida baholandi.

Mazkur yondashuv asinxron motorlarning nosimmetrik ish rejimlaridagi xususiyatlarini dastlabki bosqichda samarali tahlil qilish, asosiy parametrlarning o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash hamda keyingi eksperimental tadqiqotlar uchun ishonchli metodik asos yaratish imkonini berdi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Tadqiqot uchun qabul qilingan motor parametrlari

Parametr	Belgilanishi	Qiymati
Nominal quvvat	$P_2$	5 kW
Nominal kuchlanish	$U_n$	380 V
Chastota	F	50–60 Hz
Nominal tok	$I_n$	10 A
Nominal aylanish tezligi	$n_n$	3000 ayl/min
Faza soni	-	3

Motorning kirish aktiv quvvati quyidagi ifoda yordamida baholandi:

$$P_1 = \sqrt{3} \cdot U \cdot I \cdot \cos\varphi$$

Foydali ish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlandi:

$$\eta = \frac{P_2}{P_1} \cdot 100\%$$

Energiya yo'qotishlari esa quyidagi ifoda orqali hisoblandi:

$$\Delta P = P_1 - P_2$$

Nosimmetriya darajasini miqdoriy baholash maqsadida kuchlanish nosimmetriyasi koeffitsiyenti (VUF) qo'llanildi:

$$VUF = \frac{U_2}{U_1} \times 100\%$$

bu yerda  $U_2$  — manfiy ketma-ketlik kuchlanishi,  $U_1$  — musbat ketma-ketlik kuchlanishi.

Modellashtirish jarayonida asosiy normal rejim 0 % nosimmetriya holati sifatida qabul qilindi. Nosimmetrik rejimlarning asinxron motor ishlash ko'rsatkichlariga ta'sirini yanada batafsil baholash maqsadida qo'shimcha ravishda 2 %, 4 % va 6 % VUF qiymatlariga mos hisobiy stsenariylar shakllantirildi. Ushbu qiymatlar real eksperimental o'lchov natijalari emas, balki taklif etilgan metodikaning samaradorligini tekshirish hamda nosimmetriyaning motor parametrlariga ta'sirini baholash uchun tanlangan modellashtirish rejimlari hisoblanadi.

Mazkur yondashuv turli nosimmetriya darajalarida motorning energetik va ekspluatatsion ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni tizimli ravishda tahlil qilish hamda keyingi eksperimental tadqiqotlar uchun ilmiy-uslubiy asos yaratish imkonini berdi (2-jadval).

### 2-jadval

#### Asinxron motor uchun qabul qilingan nosimmetriya darajalari va modellashtirish rejimlari

Rejim	VUF, %	Tavsifi
1-rejim	0	Normal (simmetrik) rejim
2-rejim	2	Yengil nosimmetrik rejim
3-rejim	4	O'rtacha nosimmetrik rejim
4-rejim	6	Yuqori nosimmetriya darajasiga yaqin rejim

Hisobiy-modellashtirish natijalari. Model natijalari kuchlanish nosimmetriyasi darajasi ortishi bilan motor faza toklaridagi o'zgarishlar yanada yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Olingan natijalar nosimmetriyaning motorning elektr parametrlariga ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, faza toklaridagi notekislikning

ortishi stator chulg'amlarida qo'shimcha issiqlik yo'qotishlarining yuzaga kelishiga olib kelishi aniqlandi. Mazkur natijalar asinxron motorlarning nosimmetrik ish rejimlarini samarali monitoring qilish va ularning energiya samaradorligini baholash uchun muhim ilmiy asos yaratadi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Kuchlanish nosimmetriyasi sharoitida asinxron motorning elektr va energetik ko'rsatkichlarining o'zgarishi

VUF, %	O'rtacha tok, A	Maksimal faza toki, A	Tok nosimmetriyasi, %	cosφ	FIK, %
0	10.0	10.0	0.0	0.82	86.0
2	10.4	11.5	14.5	0.80	84.7
4	11.1	13.0	27.8	0.77	82.5
6	12.0	14.8	42.1	0.73	79.6

Jadval natijalaridan ko'rinadiki, kuchlanish nosimmetriyasi 0 % dan 6 % gacha ortganda maksimal faza toki 10 A dan 14,8 A gacha oshadi. Olingan natijalar nosimmetriyaning motorning elektr parametrlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, tok qiymatlarining ortishi tokning kvadratiga proporsional bo'lgan mis yo'qotishlarining ko'payishiga olib keladi:

$$\Delta P_{cu} \propto I^2 R$$

Mazkur bog'liqlik faza tokidagi nisbatan kichik o'zgarishlar ham motor chulg'amlaridagi issiqlik yuklamasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shu jihatdan, nosimmetriya darajasini nazorat qilish motorning ishonchli va energiya tejamkor ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Motorning chiqish quvvati 5 kW deb qabul qilinganda, nosimmetriya darajasi ortishi bilan kirish quvvati va umumiy energiya yo'qotishlarining o'sishi kuzatildi. Bu natijalar taklif etilgan monitoring metodikasining nosimmetrik rejimlarning energetik samaradorlikka ta'sirini baholashdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi (4-jadval).

### 4-jadval

#### Kuchlanish nosimmetriyasi sharoitida asinxron motorning quvvat ko'rsatkichlari va energiya yo'qotishlarining o'zgarishi

VUF, %	Chiqish quvvati ( $P_2$ ), kW	Kirish quvvati ( $P_1$ ), kW	Yo'qotish $\Delta P$ , kW	FIK, %
0	5.00	5.81	0.81	86.0
2	5.00	5.90	0.90	84.7
4	5.00	6.06	1.06	82.5
6	5.00	6.28	1.28	79.6

Natijalarga ko'ra, VUF 6 % bo'lgan rejimda energiya yo'qotishlari normal rejimga nisbatan taxminan 0,47 kW ga ortishi kuzatildi. Bu natija nosimmetriya darajasining motorning energetik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi.

Qo'shimcha energiya yo'qotishlari quyidagicha aniqlandi:

$$\Delta P_{ortish} = 1,28 - 0,81 = 0,47 \text{ kW}$$

Agar motor kuniga 8 soat ishlasa, qo'shimcha energiya sarfi quyidagicha bo'ladi:

$$E_{qo'shimcha} = 0,47 \times 8 = 3,76 \text{ kWh/kun}$$

Olingan natijalar nosimmetrik rejimlarni o'z vaqtida aniqlash va monitoring qilish tizimlarini qo'llash orqali energiya samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu natijalar taklif etilgan boshqaruv algoritmlarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Nosimmetrik rejimlarda tok qiymatlarining ortishi natijasida motor stator chulg'amlaridagi issiqlik yuklamasi ham ortadi. Hisobiy baholashlarda haroratning o'zgarishi tokning kvadrati bilan bog'liq holda qabul qilinib, bu yondashuv nosimmetriyaning issiqlik jarayonlariga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini berdi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Kuchlanish nosimmetriyasi sharoitida issiqlik yuklamasi va harorat o'zgarishining hisobiy bahosi

VUF, %	Maksimal tok, A	Nisbiy issiqlik yuklamasi	Harorat o'sish tendensiyasi
0	10.0	1.00	Normal
2	11.5	1.32	O'rtacha qizish
4	13.0	1.69	Yuqori qizish ehtimoli
6	14.8	2.19	Yuqori qizish darajasi




Nisbiy issiqlik yuklamasi quyidagi ifoda asosida baholandi:

$$K_T = \left( \frac{I_{max}}{I_n} \right)^2$$

Hisobiy baholash natijalariga ko'ra, VUF 6 % bo'lgan holatda nisbiy issiqlik yuklamasi normal rejimga nisbatan 2,19 baravarga ortishi mumkin. Bu natija nosimmetrik rejimlarning motorning termik holatiga ta'sirini aniq baholash imkonini beradi hamda ekspluatatsiya jarayonida monitoring tizimlaridan foydalanishning muhimligini ko'rsatadi.

MATLAB/Simulink muhitida va nazariy hisoblashlar asosida olingan natijalar kuchlanish nosimmetriyasi asinxron motorning tok taqsimoti, energiya samaradorligi va issiqlik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, VUF qiymati 0 % dan 6 % gacha oshganda maksimal faza toki 10 A dan 14,8 A gacha, energiya yo'qotishlari esa 0,81 kW dan 1,28 kW gacha ortishi kuzatildi. Shu bilan birga, motorning foydali ish koeffitsiyenti 86,0 % dan 79,6 % gacha kamaydi.

Olingan hisobiy-modellashtirish natijalari taklif etilgan eksperimental metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Natijalar kuchlanish va tok parametrlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, VUF va tok nosimmetriyasini baholash hamda belgilangan mezonlar asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish orqali nosimmetrik rejimlarning ta'sirini o'z vaqtida aniqlash va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv kelgusida amaliy monitoring va himoya tizimlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-uslubiy asos yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Kuchlanish nosimmetriyasi (VUF) darajasining asinxron motorning maksimal faza tokiga ta'siri

MATLAB/Simulink modellashtirish muhiti va nazariy hisoblashlar asosida olingan natijalar kuchlanish nosimmetriyasining asinxron motorning tok taqsimoti, energiya samaradorligi hamda issiqlik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, VUF qiymati 0 % dan 6 % gacha oshganda maksimal faza toki 10 A dan 14,8 A gacha, energiya yo'qotishlari esa 0,81 kW dan 1,28 kW gacha ortishi kuzatildi. Shu bilan birga, motorning foydali ish koeffitsiyenti 86,0 % dan 79,6 % gacha o'zgardi.

Olingan natijalar taklif etilgan eksperimental metodikaning samaradorligini tasdiqlab, kuchlanish va tok parametrlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, VUF hamda tok nosimmetriyasini baholash va belgilangan mezonlar asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish imkoniyatini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv nosimmetrik ish rejimlarini erta aniqlash va ularning motor ishlashiga ta'sirini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari VUF qiymati ortishi bilan asinxron motorlarning energetik va ekspluatatsion ko'rsatkichlarida muhim o'zgarishlar yuz berishini ko'rsatdi. Xususan, maksimal faza tokining ortishi motor chulg'amlaridagi issiqlik yuklamalarining ko'payishiga sabab bo'lsa-da, bu holat monitoring tizimlari yordamida o'z vaqtida aniqlanishi va tegishli boshqaruv choralarini qo'llash imkonini beradi. Natijalar nosimmetrik kuchlanish sharoitida motorlarning ish rejimini optimallashtirish va ularning xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Shuningdek, olingan natijalar avvalgi tadqiqotlarda qayd etilgan qonuniyatlar bilan mos kelib, hatto kichik darajadagi kuchlanish nosimmetriyasi ham tok nosimmetriyasi va qo'shimcha quvvat yo'qotishlarining ortishiga olib kelishini tasdiqladi. Mazkur tadqiqotning muhim jihati shundaki, unda nafaqat nosimmetriyaning motor parametrlariga ta'siri baholandi, balki monitoring ma'lumotlari asosida uch bosqichli nazorat va boshqaruv tizimi — "normal", "ogohlantirish" va "himoya" rejimlari ham taklif etildi. Ushbu yondashuv motorlarni avariya holatlardan himoyalash va ularning ishonchli ishlashini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta'kidlash joizki, tadqiqot natijalari MATLAB/Simulink modellashtirish muhiti va nazariy hisoblashlarga

asoslangan bo'lsa-da, ular real vaqt monitoringi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi. Kelgusida laboratoriya va sanoat sharoitidagi sinovlar orqali metodikani yanada takomillashtirish uning amaliy qo'llanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda nosimmetrik ish rejimlarida asinxron motorlarni nazorat qilish va boshqarish tizimlarini tadqiq etish uchun kompleks eksperimental metodika ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv real vaqt monitoringi, nosimetriya darajasini baholash hamda boshqaruv qarorlarini shakllantirish jarayonlarini yagona integratsiyalashgan tizim doirasida amalga oshirish imkonini berdi.

Hisobiy-modellashtirish natijalari kuchlanish nosimetriyasi asinxron motorlarning energetik va ekspluatatsion ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, VUF qiymati 0 % dan 6 % gacha oshganda maksimal faza toki va issiqlik yuklamasining ortishi kuzatildi. Shu bilan birga, olingan natijalar motorlarning ish rejimini optimallashtirish va ularning texnik holatini samarali nazorat qilish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi nosimmetrik rejimlarni baholash bilan cheklanib qolmasdan, monitoring ma'lumotlari asosida uch bosqichli nazorat va himoya boshqaruv yondashuvining taklif etilganligida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv nosimmetrik holatlarni erta aniqlash, motorlarning ishonchligini oshirish hamda avariya vaziyatlarning oldini olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ishlab chiqilgan metodika real vaqt monitoringi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini yaratishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida laboratoriya sinovlari va sanoat elektr yuritmalarida qo'llash orqali yanada takomillashtirilishi mumkin. Tadqiqot natijalari asinxron motorlarning samarali va ishonchli ishlashini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy monitoring hamda himoya tizimlarini rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lee, C.-Y., Chen, B.-K., Lee, W.-J., Hsu, Y.-F. (1998). Effects of Various Unbalanced Voltages on the Operation Performance of an Induction Motor under the Same Voltage Unbalance Factor Condition. *Electric Power Systems Research*, 47(3), 153–163. DOI: 10.1016/S0378-7796(98)00035-2.
2. Lee, C.-Y. (1999). Effects of Unbalanced Voltage on the Operation Performance of a Three-Phase Induction Motor. *IEEE Transactions on Energy Conversion*, 14(2), 202–208. DOI: 10.1109/60.766984.
3. Wang, Y.-J. (2001). Analysis of Effects of Three-Phase Voltage Unbalance on Induction Motors with Emphasis on the Angle of the Complex Voltage Unbalance Factor. *IEEE Transactions on Energy Conversion*, 16(3), 270–275. DOI: 10.1109/60.937207.
4. Pillay, P., Hofmann, P., Manyage, M. (2002). Derating of Induction Motors Operating with a Combination of Unbalanced Voltages and Over- or Undervoltages. *IEEE Transactions on Energy Conversion*, 17(4), 485–491.
5. Faiz, J., Ebrahimpour, H., Pillay, P. (2004). Influence of Unbalanced Voltage on the Steady-State Performance of a Three-Phase Squirrel-Cage Induction Motor. *IEEE Transactions on Energy Conversion*, 19(4), 657–662.
6. Beleiu, H.G., et al. (2022). Effects of Voltage Unbalance and Harmonics on Drive Systems. *Journal of Vibroengineering*.
7. Cummings, P.B., Dunki-Jacobs, J.R., Kerr, R.H. (1985). Protection of Induction Motors Against Unbalanced Voltage Operation. *IEEE Transactions on Industry Applications*, IA-21(4), 778–792.
8. IEC 60034-26. (2002). Rotating Electrical Machines – Part 26: Effects of Unbalanced Voltages on the Performance of Three-Phase Induction Motors. International Electrotechnical Commission (IEC).
9. NEMA MG 1. (2002). Motors and Generators – Effects of Unbalanced Voltages on the Performance of Polyphase Induction Motors. National Electrical Manufacturers Association (NEMA).

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)